



ЭКОЛОГИЯ, АТРОФ-МУҲИТНИ МУҲОФАЗА
ҚИЛИШ ВА ИҚЛИМ ЎЗГАРИШИ ВАЗИРЛИГИ



МАРКАЗИЙ ОСИЁ АТРОФ-МУҲИТ ВА ИҚЛИМ
ЎЗГАРИШИНИ ЎРГАНИШ УНИВЕРСИТЕТИ (GREEN
UNIVERSITY)



ЎРМОН ХЎЖАЛИГИ ИЛМИЙ-
ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ

ЎРМОН ХЎЖАЛИГИ ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ



“O‘ZBEKISTONDA CHO‘LLANISH
MUAMMOLARI VA ULARNING
YECHIMLARI” MAVZUSIDA
XALQARO MIQYOSIDAGI
ILMIY-TEXNIK ANJUMANI

17 oktabr 2024 yil,
Toshkent viloyati, Toshkent tumani



MAQOLALAR
TO‘PLAMI

www.urmon.uz

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Olib borgan tadqiqotlar natijasida ayrim insonlar tomonidan tabiiy maydonlarda o'suvchi o'simlik dunyosi va dorivor o'simliklardan belgilangan tabtabda foydalanilmaslik holatlariga duch keldik. Qolaversa ularni chorva mol-qo'ylarni haydab boqish orqali nobud qilish holatlari kundan-kunga ortib borayotgaligini ko'rish mumkin. Misol uchun 2021 yil 16 may kuni Namangan viloyatining Pop tumani va Toshkent viloyati joylashgan Qamchiq dovoni tog'i maydonlarida qoqi (*Taraxacum officinale* Web.), zubtrum (*Plantago coronopus* L.), ermon (*Artemisia absinthium* L.), qariqiz (*Arctium tomentosum* Mill.), otquloq (*Rumex*), jag'-jag' (*Capsella Bursa Pastoris Medic* L.), yalpiz (*Mentha*), sachratqi (*Cichorium intybus* L.), sebarga (*Trifolium*), gulxayri (*Althaea* L.), isiriq (*Peganum harmala* L.), dalachoy (*Hypericum* L.), arpabodiyon (*Anisum*), tog'rayxon (*Origanum* L.), rovoch (*Rheum*), lolalar (*Tulipa*), na'matak (*Roza* L.) o'suvchi dorivor o'simliklarni o'rganildi. Tadqiqot natijasida mahalliy aholi tomonidan tog'da o'suvchi dorivor o'simliklar rovoch (*Rheum*), lolalar (*Tulipa*), na'matak (*Roza* L.) larni ochilgan gunchasini terib sotish holatlariga duch keldik.

Xulosa, taklif va tavsiyalar. Yuqoridagi holatdan kelib chiqib tabiat va jamiyat munosabatlarini, insonlar o'simlik dunyosidan va tabiiy resurslardan foydalanishni tartibli amalga oshirmas ekanmiz tez orada tabiiy jarayonlar bundanda kuchli salbiy oqibatlariga olib kelishi, ularning tabiiy zahira maydonlari kamayib borishi mumkin. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish har bir inson oldida turgan burchdir. Hozirgi kunda O'rmon xo'jaligi yerlarida ham bu dorivor o'simliklarni ekib ulardan mahsulotlar tayyorlashda keng foydalanilmoqda. Qilinayotgan ishlarni yanada kengaytirib uning holatidan ko'proq mahsulotlar olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. E.T. Berdiyev, M.X. Xakimova, G.B. Maxmudova. O'rmon dorivor o'simliklari (O'quv qo'llanma). - Toshkent, O'zR FA mini tipografiyasi, 2016. - 252 bet.
2. O'zbekiston Qizil kitobi. T 1tom. O'simliklar. Toshkent: FAN, 2015.
3. A.A.Abdullayev, T.A.Madumarov, A.S.Dariyev, B.X.Sattorov, E.Yu.Ruzmatov. B.A.Sirojiddinov "Biologiyadan qisqacha izohli lug'at" Toshkent «Navro'z» nashriyoti 2016 y.

GUJUM DARAXTI YOSH KO'CHATLARINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

T.G. Jumayev, Z.A. Ro'ziyeva Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston hududida tabiiy va sun'iy holda tarqalgan qayrag'och turkumiga mansub Gujum qayrag'ochini biologik xususiyatlari, hayotiy shakillari, ko'paytirish usullari hamda xalq xo'jaligi va shaharsozlikdagi ahamiyati yoritilgan. Qayrag'och turkumi turlarining ilmiy va mahalliy nomlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Gujum qayrag'och, O'rta Osiyo va Ozorboyjon Maydabargli qayrag'och, bioekologiya, yetishtirish texnologiyasi.

Kirish. Biologik xilma-xillikni saqlab qolish hamda kelajak avlodlarga o'simliklarni turlari sonini kamaytirmasdan saqlab qolish bizni tabiat oldidagi

hamda kelajak avlodlar oldidagi burchimiz bo`lib hisoblanadi. Shu maqsaddan kelib chiqib atrofimizni o`rab turgan har bir o`simlikning biologik xususiyatlarini o`rganish, ular ustida tadqiqot ishlarini olib borishimiz zarur. O`simliklar olami barcha tiriklikni zarur manbalar bilan ta`minlabgina qolmasdan, estetik zavq berish, shaharlarda havo balansini bir miyorda saqlash, shahar shovqinini yutish, chang va mikroblardan tozalash kabi vazifani beminnat bajaruvchilar hisoblanadi. Atrofimizni o`rab turgan ko`plab o`simliklar mavjud, har bir o`simlikning o`ziga xos xarakteri belgilari bor, ayrim o`simliklar faqatgina dorivor, ayrimlari oziq ovqat bo`lsa, qayrag`ochdoshlar oilasiga mansub Ulmus turkumi turlari o`zining biologik xususiyatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu o`simlik asosan O`rta Osiyo va Ozorboyjonda yaxshi o`sadi, hamda 450-500 yil o`sib turadi [1]. Yorug`likga talabchan, qurg`oqchilikka juda chidamli, sovuqqa hamda zararkunandalarga nisbatan chidamsiz. U tog`larning 1500 balandligigacha bo`lgan joylarda yaxshi o`sadi. Qulay sharoit bo`lsa uning bo`yi 10-15-m gacha yetadi. Shox-shabbasi qalin, shakli sharsimon, tik joylashadi. Shoxlanishi monopodial barglari novdalarida ketma-ket joylashadi barglarining shakli tuxumsimon shakilda. Qayrag`och mart oyining boshlarida havo haroratiga qarab 5-10 kungacha oralig`ida vegetatsiyasini boshlaydi. Mart oyining oxiri aprel oylarida gullab mevalaydi urug`larine tezlik bilan yig`ishtirib olinmasa barcha urug`lar kichik va yingil bo`lganligi sababli tetib olish imkoni bo`lmaydi.

Gujum daraxti o`ta chidamli bo`lib, yuz yildan ortiq umr ko`radi. Mutaxassislarining ta`kidlashicha, qayrag`ochlar oilasiga mansub ushbu nabotot namunasi joy tanlamaydi. Xuddi yantoqqa o`xshab chuqur ildiz otib, qurg`oqchil, sho`rlangan yerlarda ham o`saveradi. Barglari tukchalar bilan qoplangani bois quyosh issiqligini o`tkazmaydi. Havodagi namlikni so`rib olishi tufayli bug`lantirish xususiyati kam. Shu bois ihotazorlar barpo etishda, asosan, gujumdan foydalaniladi.

Obyekt va metodlari: Tadqiqotning obyektida Buxoro viloyati iqlim sharoitiga moslashtirilgan Gujum qayrag`ochi, Buxoro viloyati Ilmiy tadqiqot stansiyasining Jondor tumani yer maydonlarida olib borildi [5]. Biometrik o`lchov va tahlillar umumqabul qilingan uslublar Borisova, Beydeman I.N. [2].

Turlarning ontogenez bosqichlarini o`rganishda T.A.Rabotnov (1950) tomonidan taklif etilgan, keyinchalik A..A.O`ranov va shogirdlari tomonidan takomillashtirilgan metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Latent davrida o`simlik urug`larining pishib yitilishidan to unib chiqquncha bo`lgan o`zgarishlar kuzatildi. Virginil davrida yosh nihollar bargaining shakl o`lchami, yuvenil bosqichda barglar sonining o`lchami, virginal yoshidagi o`simliklarda barglarning o`lchami, novdalarning miqdori, uzunligi, o`simliklarning o`sish jadalligi va ildiz tuzilishi o`rganildi.



a.



b.

1-rasm. Ulmus L. Turkumi turlarining virginil davri: a) bir yillik holati b) ikki yillik holati

Urug`larning unuvchanligini botanik tadqiqotlarda keng qo`llanib kelinadigan M.G. Nikolayeva (1982) metodi yordamida aniqlandi. Bunga ko`ra urug`ning unuvchanligi, o`shish energiyasi, dala sharoitida urug` unuvchanligi, ekish muddatlarining tasiri, urug`larga etibor berish xususiyatlariga e`tibor qaratildi [4]. Urug`lar ekish natijalariga ko`ra 1m ga 10 dona urug`lar ekiladi. Ekishdan oldin urug`lar qo`l bilan ishlov beriladi. 1000 dona urug`ning og`irligi 5,6 grammdan 7,4 grammgacha kelishi aniqlandi. 1 dona urug`ning og`irligi o`rtacha 0.007 gr ga tengligi aniqlandi.

Tajribaning keying bosqichida yangi unib chiqqan yosh o`simlik ko`chatlarning morfologik va biologik xususiyatlari o`rganildi. Tajribaning ikkinchi yilidan boshlab vegetatsiya jarayonida urug`idan ekilgan ko`chatlarning o`shish ko`rsatkichlari qayd etib borildi. Tajriba jarayonida 2020-yil 50 sotx maydonga bahor faslida fevral oyida qayrag`och urug`lari ekildi. Urug`lar balandligi 12-15 sm balandlikdagi egatlarga ekildi. Urug` ekish chuqirligi 0,5-1sm qilib olindi. Urug`lar unish davrida egatlar doimo nam holda ushlanishiga harakat qilindi. Tajriba natijasida 50 sotx maydonga urug`idan ekilgan qayrag`ochlarning 45-50% unib chiqdi. Unib chiqqan nihollar vegetatsiya ohirida 40-45% gacha saqlanib qoldi. Tadqiqotlar mobaynida 2021-yili qayrag`och o`simligini qalamchalari ekildi. Barcha qayrag`och turlari ildiz qalamchasidan yaxshi ko`payadi. Ildiz qalamchalari mart-aprel oylaridan boshlab ekishdan avval tayyorlindi. Qalamchalar uzunligi 10-12 sm qilib olindi, diametri 0,5-2 sm qilib olindi. Qalamchalar egatda bir-biridan 10 sm masofada (egatlar orasi 70-80 sm) ekildi va bunda 1 gektarga 140 ming dona qalamcha sarflanadi. Qalamchalar zaxlatib sug`orildi. Kuzatuvlar jarayonida bir yillik nihollar maksimal balandligi 1,5m, o`rtach balandligi 1m ga o`sganligi kuzatildi. Bir yillik nihollarga kuz faslida payvand solindi, payvandlarning oralig`i. Ikki yillik nihollarining maksimal balandligi 3m, qolgan nihollar o`rtacha 2m ni tashkil qiladi. Tajribaning keying bosqichida yangi unib chiqqan yosh o`simlik ko`chatlarning morfologik va biologik xususiyatlari o`rganildi. Tajribaning ikkinchi yilidan boshlab vegetatsiya jarayonida urug`idan ekilgan ko`chatlarning o`shish ko`rsatkichlari qayd etib borildi.

Xulosa. Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda mamlakatimizda intraduksiya qilingan va ko`kalamzorlashtirishda keng qo`llanib kelayotgan manzarali daraxtlarning turlari ko`paytirilmoqda. Bunday manzarali daraxtlarni respublikamiz ilqlim sharoitlariga moslashtirish, yanada kengroq

foydalanish uchun albatta ko`paytirish usullarini yaxshiroq bilishimiz lozim. Manzarali o`simliklar orasida qayrag`och o`simligi alohida o`rinni egallaydi. Tajribamiz natijasida shuni aytishimiz mumkinki, ushbu o`simlikni vegetativ ko`paytirishda asosan bir va ikki yillik vegetativ novdalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Generativ usulda ko`paytirishda tinim davrini o`tagan urug`lardan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

1. A.K. Qayimov, E.T. Berdiyev "Dendrologiya" T.: «Fan va texnologiya», 2012.
2. Байдеман И.Н. Методика изучения фенологии растений и растительных сообществ. – Новосибирск: Наука 1974.-С.154.
3. Yarmuhammedov, J. (2023). TUPROQ SHO'RLANISHINI MONITORING QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 43(43).
4. Yarmuhammedov, J. (2023). TOF KUDDUSI (STACHYS BETONICAEFLORA) NI GULLASH BILOGIYASI VA URUG MAQSULDORLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 41(41).
5. Yarmuhammedov, J. (2023). AERVA LANATA JUSS. NI BUXORO VILOYATI SHAROITIDA UNIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHINI O'RGANISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 43(43).
6. Buriyev, S. B., Okilova, G. A., Shodmonov, F. Q., Yarmuhammedov, J. M., & Ibrohimov, A. I. (2024). The current state and hydrochemical characteristics of the ichthyofauna of the Zamanbobo natural reservoir. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 116, p. 03002). EDP Sciences.
7. Tagaeva, M., Ro`ziyeva, Z., & Jumayev, T. (2024). Biotechnology of increasing the productivity of plants under the influence of microbiological preparations. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 113, p. 01008). EDP Sciences.
8. Jumayev, T. G., & Jamshedovna, Q. J. (2024). MEVALARNI PISHGANLIK DARAJASINI ANIQLASH USULLARI.

ЭРРОЗИЯГА УЧРАГАН ТУПРОҚ ШАРОИТИДА ТАКРОРИЙ ЭКИНЛАР ЕТИШТИРИШ ҲАМДА ҲАМКОР ЭКИНЛАР ЭКИШНИНГ АҲАМИЯТИ

И.Н.Хошимов к.х.ф.д;

Ш.Д.Худойбердиева докторант

Андижон Дон ва дуккакли экинлар илмий-тадқиқот институти

Аннотация. Қисқа навбатлаб галла навбатлаб дон дуккакли экинлар экиш тизимида Марказий Фаргонанинг шамол эрозиясига учраган, унумдорлиги паст ерларда кузги бугдойдан сўнг такрорий экинлар (соя, мош, ерэнгоқ, кунгабоқар, маккажўхори, хамкорликда кунгабоқар+мош, маккажўхори+соя,) етиштиришни тупроқ унумдорлиги ва парваришлаш агротехникаси элементларини уларни ўсиш, ривожланиши ҳосилдорлигига таъсири ўрганилмаган ва ҳозирда тадқиқотларимиз давомида ўрганилмоқда. Бу эса республикамизда кузги бошоқли дон экинларидан кейин такрорий

42	ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИ ШАРОИТИДА ОДДИЙ ЭМАН УРУҒЛАРИНИ ЭКИШГА ТАЙЁРЛАШ МУДДАТЛАРИНИНГ УРУҒ УНУВЧАНЛИГИГА ТАЪСИРИ (З.Н.Ўролов, И.З.Янгибаева, Б.И.Эшанкулов).....	187
43	О'ZBEKISTONDA CHO'LLANISH MUAMMOLARI OLDINI OLISHDA O'SIMLIKlardan FOYDALANISH ISTIQBOLLARI (D.M. Tagayeva, M.B. G'ofurova).....	190
44	ИХОТА ЎРМОНЛАРИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЧЎЛ ЯЙЛОВЛАРИ ХОСИЛДОРЛИГИНИ ОШИРИШДАГИ ЎРНИ (Холтўраев Ш. Ч., Ахмедов Х. Т., Нажмиддинов. Ж.Н.)	197
45	DORIVOR LAVANDA O'SIMLIGINING QALAMCHA USULIDA ISSIQXONA XAMDA OCHIQ DALA SHAROITIDA KO'PAYTIRISH VA KO'KARUVCHANLIK DARAJASINI O'RGANISH (SH.X.Abdulazizov, M.Y.Ismatullayeva, SH.N.Inomjonov).....	202
46	О'РМОН КО'ЧАТОНАЛАРИДА ТАЙЙОРЛАНГАН КО'ЧАТЛАРНИ КО'ЧИРИБ OLISHGA MOSLASHTIRILGAN MAXSUS KOVLAGICH KONSTRUKSIYASI (I.A.Nazirjonov, M.B.Abdurahmonov, X.M.Sultonov).....	207
47	PUSHTA OLGICHNING O'LCHAMLARINI ASOSLASH BO'YICHA O'TKAZILGAN TADQIQOTLAR (I.Nazirjonov, A.Xudoyarov, M.A.Yuldasheva).....	211
48	QUYI AMUDARYO CHAP QIRG'OG'I TUPROQLARINING HOZIRGI EKOLOGO-MELIORATIV HOLATI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH (A.J.Arzimbetov).....	216
49	EKOLOGIK PR – OROL FOJIASI, CHO'LLANISH MUAMMOLARI YORITILISHIDA TASHKILOTLAR IMIJINI YARATISH VOSITASI SIFATIDA (D.Djurayeva, N.Muhsimov).....	221
50	ZARAFSHON MILLIY TABIAT BOG'INING GEOEKOLOGIK MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMIGA QARATILGAN CHORA TADBIRLAR (D.Baxtiyorova, E.Xolmonov).....	226
51	RESPUBLIKAMIZDA KUZATILAYOTGAN TURI EKOLOGIK MUAMMOLAR (F.B.Abdullayeva).....	231
52	DEHQONCHILIKDA AGROEKOLOGIYA, TUPROQLAR UNUMDORLIGI, MELIORATIV MONITORINGI VA UNING VAZIFALARI (D.S. Yarmatova, S.I. Ashurmahmatov, U.V. Norqulov)....	236
53	NAMANGAN VILOYATIDA TARQALGAN AYRIM DORIVOR O'SIMLIKLAR VA ULARNI MUHOFAZA QILISH (Z.X. Akbarov)....	239
54	GUJUM DARAXTI YOSH KO'ЧАТЛАРИНИ YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI (T.G. Jumayev, Z.A. Ro'ziyeva).....	241
55	ЭРРОЗИЯГА УЧРАГАН ТУПРОҚ ШАРОИТИДА ТАКРОИЙ ЭКИНЛАР ЕТИШТИРИШ ҲАМДА ҲАМКОР ЭКИНЛАР ЭКИШНИНГ АҲАМИЯТИ (И.Н.Хошимов, Ш.Д.Худойбердиева).....	244